

**MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI, KELIB CHIQISH
TARIXI, MAQSADI VA TAMOYILLARI**

*Norkulova Dilorom Oybekovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
Mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada modulli ta'lism texnologiyasining kelib chiqish tarixi, ta'lism jarayonidagi mohiyati, bu texnologiyani qo'llashdan ko'zlangan maqsad hamda uning tamoyillari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: modulli ta'lism, pedagogik texnologiya, eksperimental faoliyat, blok-modulli ta'lism, modullilik prinsipi, xalqaro baholash dasturlari, TIMSS, PIRLS, PISA, masofaviy ta'lism, individual o'rgatish tizimi

Modulli ta'lism texnologiyasi pedagogik texnologiya sifatida ta'lism jarayoniga kirib kelishi 1869-yil Harvard universiteti ta'limga borib tarqaladi. Aynan shu paytda Harvard universiteti o'z talabalari o'quv dasturiga tanlov fanlarni kiritdi. Bu esa modulli ta'lism texnologiyasining ilk xususiyatlarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Oradan 27 yil o'tgach Amerikada mashhur faylasuf va pedagog sifatida tanilgan Jon Dyui Chikago universitetida tajriba-sinov maktabini tashkil etdi va 4 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan o'zining eksperimental faoliyatini olib borgan. Bu jarayonda Dyui bolalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni guruhlarga ajratib, har bir o'quvchiga individual tarzda yondashish asosida dars jarayonini tashkil etgan.

Modulli ta'lism texnologiyasini zamonaviy shaklda qo'llagan olimlar sifatida fanda Russell hamda S.Postletuite tilga olinadi. Blok-modulli ta'lism tushunchasi ham aynan shu ikki olim bilan bog'liq. Blok-modulli ta'lism, o'z o'rnida, an'anaviy o'qitish tamoyillariga asoslandi. Jumladan, izchillik, muntazamlilik, nazorat va boshqaruv tamoyillari hozirgi kunga qadar modulli ta'lism texnologiyasining ajralmas qismiga aylanib kelmoqda. Modulli ta'lism texnologiyasining ishlab chiqilishi hamda ta'lism jarayoniga tatbiq etilishi ta'limga mavjud kamchiliklarni bartaraf etadi. Modulli ta'limga asosiy xususiyati mashg'ulotlarni individuallashtirish bo'lib, Russellning fikriga ko'ra, tanlov modullarning mavjudligi va ularni erkin tanlash o'quvchilarga o'rganilayotgan materialni samarali o'zlashtirish bilan bir qatorda, individual o'rganish imkonini ham beradi.

Modulli ta'lism texnologiyasi bugungi kunga kelib eng samarali pedagogik texnologiyalardan biri sanalib, bu pedagogik texnologiya asosida pedagoglar o'quv dasturlarini har bir o'quvchining qobiliyati hamda qiziqishlariga ko'ra

individuallashtirish hamda ta’lim sifatini oshirishlari mumkin. Dars jarayoniga bu tarzdagi yondashuv orqali ma’ruzalar hajman qisqartirilib, asosiy e’tibor o’quvchining mustaqil fikrlashiga, mustaqil bilim olishiga qaratiladi. Modulli ta’lim tizimining eng muhim xususiyati ham o’quvchiga ta’lim jarayonining faol sub’ekti sifatida qarashdan iboratdir. Zero, bu kabi pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan dars jarayonida an’anaviy dars jarayonidagi singari o’qituvchi yetakchi omil sifatida ko’zga tashlanmaydi, pedagog bu jarayonda maslahatchi yoki yordamchi maqomini oladi va o’quvchilarni mustaqil fikrlashga, mustaqil o’rganishga undaydi, buning uchun zamin hozirlaydi, o’quvchilarga nazariy tushunchalarni ma’ruza qilib beradi. Bu orqali pedagog o’z o’quvchilarining aqlan rivojlanishi va dunyoqarashining kengayishiga psixologik, didaktik va ma’naviy sharoitlar yaratadi.

Ko’plab manbalarga ko’ra, modulli ta’lim texnologiyasining asosiy maqsadi shaxsning mavjud ehtiyojlarini qondiradigan va qiziqishlarining yangi yo’nalishini shakllantiradigan, natijalarni kafolataydigan, moslashuvchan o’quv tuzilmalarini yaratishdan iborat.

Modulli o’qitishning yana bir maqsadi – o’quvchilarni alohida va mustaqil o’quv modullari orqali turli ketma-ketlik, hajm va tezlikdagi ta’lim dasturlari mazmunini to’liq o’zlashtirishlari hamda tanlay olishlari uchun shart-sharoit yaratishdan iborat.

A.E.Tixonova, T.I.Didenko, P.A.Yutsyavichenelar o’z tadqiqotlari davomida modulli ta’lim tamoyillarini quyidagicha qayd etadilar:

- Modullilik prinsipi;
- Natijani aniqlash, xatolar ustida ishlash;
- O’quvchilarning dinamik harakatlarini ta’minlash;
- Konsultatsiya tizimini ishlab chiqish;
- Moslashuvchanlik prinsipi;
- O’quvchilarni faollashtirish;
- Vaqtini tejash;
- Axborot mazmunini strukturalashtirish;

Modulli o’qitish - o’quv dasturining nisbatan mustaqil qismi bo’lib, mantiqiy bog’lanishga ega komponentlardan tashkil topadi. Modulli ta’lim mohiyatini quyidagi elementlar orqali tushuntirish mumkin:

- O’quv kursining mazmuni;
- O’quv maqsadlari;
- Kutilgan natija (bilim, ko’nikma, malaka, konpitensiya);
- Texnologik „uskunalar” va rivojlanish jarayonidagi uslubiy yordam;
- Ishlab chiqish jarayonini tashkil etish uchun zarur bo’lgan tashkiliy shakllar va faoliyat turlari;

- Nazorat turlari va shakllari, rivojlanish natijalarini baholashning maxsus xususiyat va mezonlari;

Modulli o'quv, o'z navbatida, boshqa pedagogik texnologiyalardan o'quvchi qiziqish va qobiliyatiga asoslangan individual o'rgatish tizimi, aniq samaradorlik, individual qobiliyat va pedagogik muvaffaqiyatlariga moslashtirilgan o'quv materiallari, ish yuklamasining bir xilda taqsimlanishi, bajarilgan ish natijalari bo'yicha bilimlarni baholash, mashg'ulot vaqtining kamaytirish, masofaviy ta'lim imkoniyatlari tomonlama afzalliklarga ega.

Modulli ta'lim texnologiyasi O'zbekiston ta'limiga XXI asrda kirib kelgan bo'lib, modulli ta'lim orqali o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad 2030-yilga qadar 10 dan ortiq oliy ta'lim muassasalarini dunyoning yetakchi oliygohlar 1000 taligiga kiritish, shu bilan birga, modulli ta'lim texnologiyasi orqali dars jarayonlarini tashkil etgan holda muktab o'quvchilarini Xalqaro baholash dasturlarida (TIMSS, PIRLS, PISA) yuqori natijalarni qayd etishdan iborat. Bu orqali mamlakatimiz o'z talaba va o'quvchilarining bilim darajalarini xalqaro miqyosdagi talaba va o'quvchilar bilan solishtirish imkoniyatiga erishadi, natijalarga ko'ra mavjud kamchiliklar o'rganiladi, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari ko'rib chiqiladi.

Xulosa o'rnilida shuni ta'kidlash kerakki, modulli ta'lim texnologiyasidan dars jarayonida foydalanish asosida bilim egallah, bu jarayonda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, xatolar ustida ishslash, vaqt ni tejash, dars jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish, o'quvchilar harakat dinamikasini saqlash kabi samarali jihatlarga erishish mumkin. Bu jarayonni to'g'ri tashkil etish esa bugungi kun pedagoglarining oldida turgan eng mas'uliyatli vazifalardan biridir. Zero, to'g'ri va samarali tashkil etilgan dars jarayoni barkamol avlodni tarbiyalash uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.P. Goloshchekina, B.C. Zbarovsky. Modular learning technology: Methodical recommendations. - SPb .: UNITY-DANA, 1993.
2. M. Yu. Oleshkov. Modern educational technologies: a tutorial. Nizhny Tagil: NTGSPA, 2011.— 144 p.
3. O.K. Saliyeva, M.Ibragimova. Relevance of training based on modular technology. "Youth and knowledge – a guarantee of success -2020", Collection of scientific papers of the 7th International Youth Scientific Conference, Kursk, September 17-18, 2020, pp. 165-167
4. O.K. Saliyeva, M.Ibragimova. Advantages of modular learning technology. European Scholar Journal (ESJ). Vol. 2 No. 5, MAY 2021, ISSN: 2660-5562
5. Sanakulova Z. A., Soibnazarova M. N. Modular education as a pedagogical technology [Text] // Pedagogical excellence: materials of the X Intern. scientific conf. (Moscow, June). - M.: Buki-Vedi, 2017 .- P. 20-22.